

Dori vositalarining nojo'ya ta'siri, allergiya, reaksiya va birinchi yordam

Tillaboyeva Surayyo Zakirjonovna

2-son Farg'ona Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Umumkasbiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dori vositalarining nojo'ya ta'siri, allergiya, reaksiya va birinchi yordam haqida aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Enteral, peroral, reaksiya, allergiya va zamburg'li kasalliklar.*

Side effects of drugs, allergies, reactions and first aid

Annotation: *This article discusses drug side effects, allergies, reactions, and first aid.*

Keywords: *enteral, oral, reaction, allergy and fungal diseases.*

Zamburug'li kasalliklar, nasliy moyillik, allergiya kuzatilishi yoki uzoq vaqt davomida dori preparatini qabul qilish kabi omillar allergik reaksiya hosil qilishi mumkin. Surunkali kasalliklarda uzoq vaqt davomida ichiladigan dorilar organizmda yig'ilib qolib, turli allergik holatlarni keltirib chiqarishi ehtimoli ham bor. Shu sabab ham bunday xastaliklarni davolashda dorilarni tanaffus bilan ichish kerakligi ta'kidlanadi. Agar biror dori allergiya bersa, boshqa preparat bilan o'zingizni davolashga oshiqmang. Bunday vaziyatlarda surgu ta'sirli dorilar bilan organizm tozalangach, zarur muolaja bajarilishi maqsadga muvofiqdir.



Reaksiya yuz berganida...

Dori vositasiga aks ta'sir yuzaga kelganida, uni oddiy allergiya bilan adashtirish hech gap emas. Zotan birlamchi belgilar aynan allergiyaga hos bo'ladi. **Bunda:**

- teri sohasidagi qizarish, qichishish;
- eshak emi (terida katta ko'rinishdagi toshma);
- allergik renit;
- nafas qisishi;
- ko'z ichining qizarishi va tez-tez yoshlanishi kabi alomatlar kuzatilishi mumkin.

Shu bilan birga, doriga aks ta'sirning jiddiy asoratlari ham mavjud. Xususan, Kvinke shishi, bronxial astma xuruji, anafilaktik shok holatiga tushib qolish shular jumlasidan.

Birinchi yordam

Notanish dori vositasini qabul qilish yoki tomirga yuborishdan avval, albatta, aks ta'siri bo'lmashligining ehtiyotini ko'rib qo'ying. Agar bu tabletka ko'rinishidagi preparat bo'lsa, tarkibini yaxshilab o'rganing. Inyeksiya ko'rinishida bo'lsa, oz miqdordagisini igna orqali tanaga yuborib, ta'sir etish-etmasligini kuzating. Mabodo reaksiya bersa, inyeksiya yuborilgan teri sohasi qizarib, shishib qoladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qabul qilayotgan doringiz organizmingizga yoqmayotgandek tuyulsa va buning bir necha belgilarini sezsangiz, quyidagilarni bajarishingiz mumkin:

- har qanday dori preparatini ichishni to'xtatib, davolovchi shifokoringiz bilan maslahatlashing;
- allergiya simptomlari paydo bo'lganidan boshlab, 2-3 kun davomida oz-ozdan ovqatlaning; keyin bir hafta-o'n kun davomida allergiya qo'zg'atuvchi mahsulotlarni iste'mol qilmang;
- dastlabki belgilarida ko'proq suyuqlik iching, eng ma'quli qaynatilgan yoki gazzsiz suv;
- allergiyaning keyingi asoratlaridan himoyalaniish uchun allergolog-shifokor ko'rigidan o'tib, zarur hollarda kerakli muolaja oling.



Nojo‘ya ta’siri

Dori vositasini xarid qilayotib, yo‘riqnomaga diqqat qiling: «Nojo‘ya ta’siri» hamda qaysi kasalliklarda tavsiya etilmasligiga e’tibor bering. Shuningdek, mustaqil dori preparatini tanlayotgan bo‘lsangiz, uni boshqa turdagilari bilan mos tushishini o‘rganib chiqing. Masalan, bosh og‘rig‘i bezovta qilsa-yu, oshqozoningizda yara bo‘lsa, barcha turdagi og‘riqsizlantiruvchi preparatlar ham sizga to‘g‘ri kelavermaydi. Mos keladiganini tanlash uchun, albatta, yo‘riqnoma bilan tanishib chiqish darkor.

Dorilar uyda bolalarning bo‘yi yetmaydigan joyda saqlanishi kerak. Har bir Dorini yaroklilik muddati yorlig‘ida qayd qilinadi, belgilangan muddatdan uzoq saqpanganda ta’sirini yo‘qotadi. Keyingi yillarda xorijdan keltirilgan dorilar xili bir kadar ortdi, shu bois uni faqat vrach maslahati bilan qabul qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K’O Zokirova “Hamshiralik ishi asoslari”
2. Meditsina xamshiralari o'quv qo'llanmasi Ramzanova R. A. Taxriri ostida, Toshkent "O'qituvchi", 1985.
3. Grajdan mudofaasi P. G. Kubovskiyning umumiy taxriri ostida. Toshkent "O'qituvchi", 1992.
4. O'qituvchilarning meditsina-sanitariya tayyorgarligi. V. N. Zavyanov, M.I. Gogolev, V.S. Mordvinov, B.A. Gayko, V.A. Shkuratov, V.I. Ushakova, Toshkent "O'qituvchi", 1991.